

Xaitov Dilshod

*Denov Tadbirkorlik va
pedagogika instituti 4mm-24
gurux talabasi*

O'qituvchi: Boyto'rayev Sirojiddin

Anotatsiya: Mustaqillik yillarida O'zbekistonda tarix fani yangi rivojlanish bosqichiga kirdi. Milliy mustaqillik va millat tarixiga bo'lgan qiziqish ortib, ko'plab tadqiqotlar amalga oshirildi. Ushbu davrda tarixiy merosni o'rganish va targ'ib qilish davlat siyosatining muhim qismiga aylandi.

Abstract: During the years of independence, the field of history in Uzbekistan entered a new stage of development. Interest in national independence and the history of the nation increased, leading to numerous studies and research. During this period, the study and promotion of historical heritage became a significant part of state policy.

Аннотация: В годы независимости историческая наука в Узбекистане вошла в новый этап развития. Увеличился интерес к национальной независимости и истории нации, что привело к множеству исследований. В этот период изучение и пропаганда исторического наследия стали важной частью государственной политики.

Kalit so'zlar: mustaqillik, millat, vatan, mustaqil davlat, O'zbekistonning yangi tarixi

Keywords: Independence, nation, homeland, sovereign state, the modern history of Uzbekistan

Ключевые слова: Независимость, нация, родина, суверенное государство, новая история Узбекистана

Kirish

Tarixiy xotirasi bor inson-irodali inson. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi

O`zbekiston Respublikasida davlat mustaqilligini qulga kiritish bilan o`zbek xalqi tarixida tub burilishi sodir buldi. Milliy istiqlol goyasi o`zbek xalqining uz huquqlari, milliy uzligini tiklashga, ijtimoiy-iqtisodiy va ma`naviy taraqqiyot sari yuz tutishga cheksiz imkoniyatlar yaratdi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sari yo`l tub islohotlar bilan belgilangan bo`lsa, ma`naviy taraqqiyotga milliy ma`naviyatni tiklash va mustaxkamlash, fan, maorif madaniyatni rivojlantirish, tafakkurga erkinlik berish bilan asoslandi. Bu jarayonda tarix, tarixiy ong va xotira xalqqa ruxiy kuch quvvat bag`ishlovchi, unga ma`naviy ozuqa beruvchi muxim omil sifatida maydonga chiqdi. O`zbek xalqining xaqqoniy tarixini tiklash va xalqni shu tarix bilan qurollantirish zaruriyati kun tartibidagi dolzarb vazifaga aylandi. Zero Mustaqillikka qadar, ya`ni mustabid tuzum xukmronligi sharoitida xaqqoniy tarixni tiklash va uni xalqqa etkazishga yul berilmadi. Chunki mustabid tuzum manfaatlariga xizmat qilgan kommunistik mafkura va uning tazyiqi ostida bulgan sovet tarixshunosligining uslubiy, nazariy, g`oyaviy asoslari xaqqoniy tarixni yoritishga imkon bermas edi. Ular xalq tarixini emas, marksizm, leninizm ta`limotini, sinfiy kurash goyalarini va kommunistik mafkura aqidalarini targib etishga buysundirilgan edi. Bu goyalar va aqidalar jamiyat taraqqiyot qonunlariga, xalqning tabiatiga, real voqelikka zid bulib ularni nafaqat xayotdan balki utmishdan xam izlash mutlaqo befoyda edi.

SHunga qaramay, mazkur ta`limot aqidalariga va tamoyillariga asoslangan sovet tarixshunosligida nafaqat o`zbek xalqining balki jahon tarixinini xam juda kup muxim masalalarai mutlaqo notugri buzib talqin etildi. Natijada tarixiy xaqiqat yashirilib xalq uz utmishidan va demak, uzligidan uzoqlashtirildi.

O`zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi.

Bu ulkaga xasad va tajovuz kuzi bilan karagan mardona xalqni kuch tabiiy zaxiralarini uziniki kilishga jon-jaxdi bilan intilgan bosqinchilar juda kup bulgan.

Sobik Shuro saltanati yillarida eng qadimgi davrlardan to XIX asr ikkinchi yarmiga qadar tariximiz soxtalashtirildi.

Prezidentimiz I.Karimov bu xaqida «O`zbekistonning o`zbek xalqining bugun keng om maga etkazishga arziydigan xaqqoniy tarixi yaratildimi, yukmi? Sovet davrida yozilgan tarixni men tarix sanamayman, uzgalar yozib bergan tarixni uqitishga mutlako qarshiman, mustamlakachi uziga qaram bulgan xalq xaqida kachon xolis, adolatli fikr aytgan? Ular bor kuch-g`oyatlarini Turkistonni kamsitishga, bizni tariximizdan judo qilishga sarflaganlar. Tarixdan judo bulish nimaligini yaxshi bilsangiz kerak. Inson uchun tarixdan judo bulish xayotdan judo bulish demakdir.»-deb juda urinli uqdirgan edilar.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida chor Rossiya xukmronligi davrida Turkishtonda mustamlakachilik siyosati xukm surdi. Mahalliy axolini xoqlash, qatagon etish shurolar davrida yanada kuchaydi. SHu tariqa Turkistonda mustaqil davlatchilikni paymol etgan, til, madaniyat va urf-odatlar va milliy qadriyatlarni oyoq osti qilgan mustabid tuzum 130 yil xukmronlik qildi.

Inson uchun tarixidan judo boqlish-hayotdan judo boqlish demakdir

Endilikda, O`zbekiston mustaqil davlat sifatida xalqaro maydonga qadam qoqygan damlarda kechagi kunga nazar tashlash, sunggi mustamlakachilik asoratini urganish ijtimoiy-siyosiy va ma`naviy jihatdan muxim axamiyat kasb etadi. CHunki millatni asrash uning xaqiqiy tarixini urganish, avaylab ximoya qilish kerak buladi.

Podsho Rossiyasi shuningdek mazlum xalqlarnii ezish va xunrezlik qilishda uning davomchisi bulgan sobiq shuro xukmronligi yillarida mustamlaka respublikalar xususan, O`zbekiston ittifoqning xom ashyo manbaiga aylantirilgan edi. Mustaqillikning ilk yillaridanok ulka boyliklarini ommaviy talon-taroj qilish oqibatlariga chek quyishga kirishildi.

Respublika Prezidenti I.Karimov 1991 yildayoq SSSR ning tarqalib ketishi va o`zbek xalqining mustaqillikni kulga kiritishi tasodifiy xodisa bulmasdan uning chuqur tarixiy ildizga ega ekanligini asosolab berdi.

2.O`zbekiston mustaqillikka erishgach tarixshunoslik fanida yangi saxifa ochildi. Ayniqsa bu borada Prezident I.Karimovning 1996 yil 18 sentyabrdagi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshida «O`zbekistonning yangi tarixi markazini tashkil etish tugqrisida»gi farmoyishi va O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1996 yil 16 dekabrdagi qaror goyat katta dastur amal ahamiyatga ega boqli. Mazkur tarixiy xujjatlarda O`zbekistonning yangi tarixini tayyorlashdek ulkan vazifa quyildi, buni amalga oshirishda XIX asrning urtalaridan xozirgi kungacha xalqimiz xayotida sodir bulgan tarixiy voqealarni, bosqichlarni va oqzgarishlarni tula qamrab olishga e`tibor berish aloxida ta`kidlandi.

Tarix qxalq maqnaviyatining asosidir

Mustaqillikning dastlabki yillari rivojlanish nuqtai nazaridan tarix fani uchun birmuncha ogqlir kechdi. Mustaqil davlat qurilishida u chinakamiga asos va tayanch boqla olmadi. Buning sababi tarixchilar oqrtasida fikrlar mushtarakligi va haqiqiy birlikning yoqligida edi. Yondashuvlarning turli-tumanligi, fikrlar tarqoqligi, tari-xiy xususiyat, yaqni qoqlga kiritilgan mustaqillikni tarixan asoslay olmaslik, eskicha ish tartibi, keksa va yosh kadrlar oqrtasidagi ziddiyat - bularning barchasi nafaqat zamon talabiga javob bermas, ayni paytda, umuman tarix fani rivojini toqxtatib qoqygan edi. Xuddi shu vaziyatda 1998 yilning iyun oyida mamlakat Prezidenti I.A.Karimov bir

guruh yetakchi tarixchi olimlar va ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashdi.

Ushbu uchrashuvda Prezident tomonidan tarixchilar oldiga katta va asosiy vazifalar qo'yildi:

1. O'zbekiston tarixini o'rganishning konsepsiyasi qanday bo'lishi kerak?
2. O'zbek xalqining kelib chiqishi va davlatchiligi tarixini qanday o'rganish kerak?
3. Zamonaviy tarixchining qiyofasi qanday bo'lishi kerak.?
4. O'zbek davlatchiligi tarixi qachondan boshlangan?

Qo'yilgan masalalarni hal qilish uchun tarix fanining metodologik asoslarini tubdan o'zgartirish zarur edi. Prezident suhbatidan keyin e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida» gi qarori (1998 yil 27 iyul) tarix fanining vazifalarini strategik jihatdan o'zgartirish uchun asos bo'ldi) Tabiiyki, mamlakat Prezidenti tomonidan qo'yilgan vazifalar bir institutgagina taalluqli bo'lmay, faqat uning jamoasi kuchi bilan bajarilmas edi. Keyingi yillarda institut mamlakatimizdagi barcha tarixchilarni o'z atrofiga birlashtirib, hqiqatda ilmiy tadqiqotlarni muvofiqlashtiruvchi o'ziga xos markazga aylandi. Ularning sa'y-harakati bilan o'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi konsepsiyasi ishlab chiqildi. Tarixchi va arxeolog olimlarning birgalikdagi mehnati mahsuli bo'lmish O'zbekiston davlatchilig'i tarixiga bag'ishlangan o'zbek va rus tillaridagi ilk kitob bu yo'nalishdagi ishlarning natijasi bo'ldi. Bu yo'nalishdagi ilk qadamlar mazkur mavzuning sovet davrida taqiqlangani va o'rganilmagani tufayli muayyan qiyinchiliklar bilan birga kechdi.

Vazirlar Maxkamasining 1998 yil 24 iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish tug'risida»gi qaror xam o'zbek tarixshunosligining bundan buyon yunalishini belgilab olishda, o'zbek milliy davlatchiligi tarixini tadqiq etishda muxim ahamiyat kasb etmoqda.

I.Karimovning 1998 yil 26 iyunda bir guruh tarixchi olimlar, jurnalistlar, ijodiy soxa xodimlari bilan bulgan uchrashuvda bildirgan fikr-goyalari, 1999 yil 2 fevralda «Turkiston» gazetasi muxbirining savollariga bergan javoblari xam kundun-kun dasturi amal kontseptual ahamiyatga ega bulib, ular o'zbek tarixshunosligining xozirgi taraqqiyotini va bundan keyingi asosiy ustuvor yunalishlarini belgilab bermoqda.

Mustaqillik yillarida tarixchi olimlarimiz tomonidan bir talay tarixiy asarlar chop qilindi. Ulardan ayrimlarini kurib chiqamiz:

Axmedov B. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. 1991 y.

Axmedov B. Tarixdan saboklar. 1994 y.

Saidkulov T. O'qirga Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavxalar. 1993 y.

Karimov SH., SHamsiddinov R. Turkiston Rusiya bosqini davrida. 1995 y.

Kamoliddinov S. Istoricheskaya geografiya YUjnogo Sogda i Toxaristana po araboyazichnim istochnikam IX nachalo XIII veka. 1996 g.

CHoironov Z. Turkiston mardikorlari: safarbarlik va uning okibatlarini (1916-1917 yillar) 1999 y.

Raximov J. O'zbekiston tarixini urganishda arxiv manbalaridan foydalanish. 1995 y.

Bobobekov X. Quqon tarixi. 1996 y.

O'zbekiston tarixini urganish va uqitishning dolzarb masalalari. 1993 y.

O'zbekistonning yangi tarixi(Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida) 2000y

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi bilan bir vaqtda uning tarkibida Tarix institute tashkil etildi. Bu tarix oldida qisqa bir muddat bo'lishiga qaramay, tub o'zgarishlar sodir bo'lganligi jihatidan butun bir davrga teng: bir tuzumikkinchisi bilan almashdi va shunchaki almashib qolmadi-qadimiy ildizlariga ega bo'lgan, boyva bebaho madaniyat yaratgan mamlakat mustaqillikka erishdi, jahon hamjamiyatiga teng huquqli a'zo sifatida kirib, o'zining o'ziga xos taraqqiyot yulini tanladi.

3.Mustaqillikning 20 yili davomida barcha sohalarda, shu jumladan, fan va uning yetakchi yunalishlaridan biri bo'lgan tarix fanida ham katta va tub o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar va yutuqlar birinchi navbatda butun yil davomida tarix fanining bayroqdori bo'lib kelgan O'zR FA Tarix institute faoliyati bilan bog'liq. Bu mashaqqatli yulda tarixchilarning o'zlarini ham, ularning ilmiy tadqiqotlari ham sovet hukumati mafkurachilarning tazyiqlarini boshdan kechirishlariga to'g'ri keldi. Bu o'qirga Amir Temurning tarixda tutgan o'rnini xolis baholash va uni buyuk sarkarda hamda davlat arbobi sifatida ko'rsatishga uringani uchun taniqli olim, akademik Ibrohim Mo'minovning kuchli tazyiqlarga duchor bo'lganligi yaqqol misol bula oladi. Shunga qaramay, ayni shu davrda tarix fanida, ayniqsa qadimgi va o'qirga asrlar tarixi hamda arxeologiyada katta yutuqlar qulga kiritildi.

Institute olimlari tomonidan O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog'liq ilgari ma'lum bo'lmagan va o'qilmagan juda katta miqdordagi ko'lyozmalar ilmiy muomilaga kiritildi, arxeologiya sohasida O'zbekiston zaminida eng qadimgi madaniyat avtohton tarzda taraqqiy etgani va u rivojlangan sivilizatsiyaning mahsuli ekanligini kursatishga imkon beradigan muhim kashvivotlar amalgam oshirildi. Bunda O'zbekiston arxeologiya va umuman tarix fanining shakillanishiga raxbarlik qilgan akademik Yahyo Gulomovning hissasi beqiyos.

Bugina emas. Uning qattiyati, har qanday vaziyatda ham o'z-o'ziga va fanga sodiq qodirligi tufayli ko'plab arxeologik, tarixiy yodgorliklar hamda obyektlar saqlab qolindi.

O'tgan yillar mobaynida tarix instituti o'zbek xalqi etnografiyasini o'rganish markaziga aylandi. Bu ishga M.S.Andreev, O.A.Suxareva, K.Sh.Shoniyozov kabi taniqli olimlar o'zlarining katta hissalarini qo'shdilar. Mazkur dargohda faoliyat kursatayotgan ularning shogirtlari o'z ustozlarini hali-hanuz alohida hayajon bilan esga oladi. Aynan shu yillarda o'zbeklarning oilasi va turmush tarzi, kasb-hunari, urf-odatlarini o'rganish boshlandi. Albatta, bu soha ham komunistik-atiestik qoliblar doirasidan tashqariga chiqolmadi. Bunday qiyinchiliklarga qaramay, tariximizning mustamlaka va sovetdavrini tadqiq etishda muayyan yutuqlarga erishildi. Bu borada nomlari O'zbekistondan tashqarida ham mashhur bo'lgan H.Z.Ziyoev va R.H.Aminova kabi olimlarning hizmatlari katta bo'ldi.

O'zR FA Tarix institute kadrlar tayyorlash buyicha O'rta Osiyoda hamisha birinchi o'rinni egallab kelganligini alohida takidlab o'tish joiz. Tarix fanining ko'lab yunalishlari boshqa respublikalarda rivojlanmagan edi, shuning uchun institut yitakchi olimlarining shogirtlari orasida qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar va boshqa millat tarixchilari ham bo'lib ular hozirda o'z mamlakatlarning fan sohasida qizg'in faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Bu, xususan, B.V.Lunin rahbarlik qilgan tarixnavislik yunalishi ga tegishli. U biobibliografiya va tarixnavislikka oid ko'plab tadqiqotlar muallifi.

Mavzuga oid adabiyotlar:

- *Karimov I. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T 1992 yil.*
- *Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. 1998 yil*
- *Karimov I. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yili. T. 2007 yil.*
- *Karimov I. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T 2008 yil.*
- *Karimov I. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'li. T. 2009. 16 jild.*
- *Karimov I. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T. 2010*
- *«O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish tugrisida» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarori. «Xalq so'zi» 1998 yil 25 iyul .*